



IJODKORLIK VA INNOVASIYA BOSHLANG'ICH SINFLARNING МАТЕМАТИКА DARSLARIDA ASOSIY NEGIZ SIFATIDA

Musahodjayeva Odina Abdulhakimovna

O'zbekiston Respublikasi Namangan Shahar 75-maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida boshlang'ich singlarda matematika darlarining innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish masalalarida STEAM ta'limining o'rni haqida fikrlar bayon etilgan.

Абстракт. В данной статье описывается роль STEAM-образования в социально-экономическом развитии Нового Узбекистана в вопросах организации начальных математических школ на основе инновационных подходов.

Abstract. This article describes the role of STEAM education in the issue of Organization of mathematics lessons on the basis of innovative approaches in the initial sings in the socio-economic development of New Uzbekistan.

Yangi O'zbekistonda har bir sohani rivojlantirish jarayonida eng avvalo ta'lim sifati eng muhim rol o'ynaydi. Innovatsion rivojlanishda ta'lim eng muhim jihat sanaladi. Aynan ta'lim sohasi innovatsiyaning dastlabki qadamlaridandir.

Bugungi globallashuv vaqtida rivojlangan va rivojlanish bosqichida bo'lgan barcha davlatlar dunyo miqyosida o'zining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, jahon bozorida tutgan rolini mustahkamlashni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Shuningdek, yildan yilga yuksalib borayotgan mamlakatlar qatorida yurtimizda ham ilm-fan, ta'lim, iqtisodiyot, sanoat, sport, san'at, madaniyat singari barcha sohalarda o'sishga erishish va buning natijasida ilmiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini bundanda yaxshilash maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.



Joriy yilda O‘zbekiston Global innovatsion indeksda 29 pog‘ona yuqoriladi. Aynan mazkur indeks davlatlardan ilmga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘lamini belgilaydi. Indeks indikatorlari chuqur tahlil qilinsa, ularning har biri ortida inson kapitali, ya’ni ilm-fan yutuqlari natijalari yotganini ko‘rish mumkin. O‘z navbatida, Global innovatsion indeks bevosita mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan qay darajada rivojlanganini ham ko‘rsatadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatning ongli tahlili; me‘yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish; (o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish). Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi: ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta‘lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me‘yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me‘yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi

O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi. Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri o‘qituvchi shaxsidir. O‘qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo‘lishi, kreativlikni, keng hamrovli qiziqish va mashhullikni, sevuvchi ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga o‘ch bo‘lishi lozim. O‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim: yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; yangicha harakat qila olishga o‘rgatish.

Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion ta‘lim boshqa etap ta‘lim jarayonlariga qaraganda eng muhim jarayon deb hisoblashimiz kerak. Bu paytda bolaga nimani



o'rgatsangiz boricha qabul qiladi. Agar bolaga har bitta jarayonni xolis baholashni o'rgata olsak, ya'ni kreativ fikrlashni o'rgata olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda STEAM ta'limiga talab oshib bormoqda. Bilimlarni amaliyotda qo'llash, ya'ni amaliy masalalarni yechish bu ta'limning asosiy tamoyilidir. Ijodkorlik va innovasiya, tanqidiy fikrlash, loyihalash ishlari ham bu ta'limning asosiy xususiyatlaridir. Chunki zamonaviy jamiyat ijodiy fikrlaydigan, innovatsion qarorlar qabul qila oladigan, moslashuvchan, keng dunyoqarashga va boshqaruv ko'nikmalariga ega mutaxassislariga muhtoj.

Birinchi navbatda, mamlakatimizdagi maktab o'quvchilari uchun tabaqalashtirilgan (differensial) ta'limni keng joriy etish, STEAM fanlarini o'zlashtirish qobiliyatiga ega bolalarni aniqlash lozim. O'g'il-qizlarning moyilligi va layoqatini aniqlash ko'p qirrali va bosqichli jarayon. Uni bola hayotining dastlabki yillaridayoq boshlash kerak. Ota-onalar farzandlarini ko'proq qiziqish va qobiliyatini namoyon etadigan yo'nalishda rivojlantirish uchun intilishi zarur. Shu bilan birga, erta yoshda bolalar biror bilimni o'rganishga juda moslashuvchan bo'lishini esda tutish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni rejalashtirish va amalga oshirish". Pedagogik ta'lim,-T. 2007.
2. www.uzedu.uz. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz).